

ISHLAB CHIQRISHDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI.

O'tkirova Mahliyo Ruhiddin qizi

*Toshkent Davlat Texnika Universiteti. Assistent
mahliyoutkirova286@gmail.com*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilishni takomillashtirishga doir muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Mehnat muhofazasi oldida turgan vazifalarning murakkabligi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish vazifalari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan ko'plab ilmiy fanlarning yutuqlari va xulosalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-huquqiy fanlar va qonun hujjatlariga, shuningdek, mehnatni ilmiy tashkil etish, texnik estetika, ergonomika, ijtimoiy va muhandislik psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarga taalluqlidir. Xavfsiz muhitni ta'minlash usullarini ishlab chiqishda mashinalar, apparatlar va boshqa asbob-uskunalarni ekspluatatsiya qilish, texnika fanlari yutuqlariga asoslanadi, ularning ma'lumotlaridan baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oldini olish uchun muhandislik yechimlaridan foydalanadi. Mehnatni muhofaza qilishning asosiy obyekti mehnat jarayonida shaxs bo'lganligi sababli, bir qator tibbiy va biologik fanlar (mehnat gigienasi, mehnat fiziologiyasi va psixologiyasi, ergonomika, ishlab chiqarish toksikologiyasi, kasbiy patologiya, ishlab chiqarish ekologiyasi va boshqalar)dan foydalaniladi. Shuningdek, mehnat muhofazasi masalalari yong'in va portlashlarning oldini olish choralari ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liqdir.*

Kalit so'zlar: *majburiy sug'urta, inson-mashina-muhit, texnologiya, samaradorlik, nevropsixik ortiqcha yuklar, kasbiy kasalliklar, baxtsiz xodisalar, muhandislik psixologiyasi.*

Анотация: *В данной статье анализируются проблемы совершенствования охраны труда на производстве и пути их решения. Сложность задач, стоящих перед охраной труда, требует использования достижений и выводов многих научных дисциплин, прямо или косвенно связанных с задачами создания здоровых и безопасных условий труда. Это касается, прежде всего, социально-правовых наук и законодательства, а также исследований в области научной организации труда, технической эстетики, эргономики, социальной и инженерной психологии. При разработке методов обеспечения безопасной окружающей среды, эксплуатации машин, устройств и другого оборудования опираются на достижения технических наук, используя их информацию для разработки технических решений по предупреждению несчастных случаев и профессиональных заболеваний. Поскольку основным объектом охраны труда является человек в трудовом процессе, используется ряд медицинских и биологических наук (гигиена труда, физиология и психология труда, эргономика, промышленная токсикология, профпатология, промышленная экология и др.). Также вопросы охраны труда тесно связаны с разработкой мер по предотвращению пожаров и взрывов.*

Ключевые слова: *обязательное страхование, человек-машина-среда, технология, эффективность, нервно-психические перегрузки, профессиональные заболевания, несчастные случаи, инженерная психология.*

Annotation: *This article analyzes the problems of improving labor protection in production and their solutions. The complexity of the tasks facing labor protection requires the use of the achievements and conclusions of many scientific disciplines that are directly or indirectly related to the tasks of creating healthy and safe working conditions. This applies, first of all, to socio-legal sciences and legislation, as well as research in the field of scientific organization of work, technical aesthetics, ergonomics, social and engineering psychology. In the development of methods of ensuring a safe environment, the operation of machines, devices and other equipment is based on the achievements of technical sciences, using their information to provide engineering solutions for the prevention of accidents and occupational diseases. Since the main object of labor protection is the person in the labor process, a number of medical and biological sciences (labor hygiene, labor physiology and psychology, ergonomics, industrial toxicology, occupational pathology, industrial ecology, etc.) are used. Also, issues of labor protection are closely related to the development of fire and explosion prevention measures.*

Key words: *compulsory insurance, man-machine-environment, technology, efficiency, neuropsychic overload, occupational diseases, accidents, engineering psychology.*

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratib berishga qaratilgandir. Albatta, munosib hayot sharoitini yaratish ilmiy-texnik taraqqiyot asosida amalga oshiriladi va bu inson mehnatini yengillashtirish bilan bir qatorda, turli xil xavfli faktorlarni vujudga keltiradiki, natijada har xil ko‘rinishdagi baxtsiz hodisalar: jarohatlanishlar, shikastlanishlar va kasb kasalliklari vujudga keladi. Lekin, bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson yaxshi yashashni, ya’ni o‘zining moddiy-ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liqroq qondirishni istaydi. Aynan shu sababli inson tinimsiz faoliyatda bo‘ladi.

Har qanday jamiyat uchun inson butun faoliyati davomida, qanaqa faoliyat bilan shug‘ullanishidan qat’i nazar, qadr-qimmatga ega bo‘lishi lozim. Chunki,, o‘z fuqarolarining sog‘lig‘iga va hayotiga nisbatan bo‘lgan e’tibor har qanday jamiyat taraqqiyot darajasining asosiy o‘lchov mezonlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi yilidan boshlab davlat bosh islohotchi taomuli asosida mamlakatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishlarini belgilab oldi va bu yo‘ldan og‘ishmay bormoqda. Insonning jamiyatni taraqqiy ettirish hamda ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy kuch ekanligini hisobga olib, uning xavfsizligi va sog‘lig‘ini saqlash ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda mehnat muhofazasi tushunchasi halqaro miqyosda o‘ta dolzarb va jiddiy tus olayotgan muammolardan biri sanaladi. Mehnat muhofazasi yuzasidan olib borilayotgan halqaro me’yorlar sirasiga quyidagi talablar kiradi: ishchi-xodimlarning sog‘lig‘i va hayotini

himoya qilish; davlat miqyosida mehnat muhofazasini ta'minlovchi me'yorlarni qabul qilish va halqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish; mehnat muhofazasi bo'yicha davlat boshqaruvi; mehnat muhofazasi talablarining bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish; mehnat muhofazasi talablari ijrosi yuzasidan keng jamoatchilik nazoratini olib borish; mehnat muhofazasi, atrof muhitning sofligini asrab avaylash, boshqa ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat turlarini muhofaza qilishni muvofiqlashtirib borish; mehnat muhofazasi bo'yicha loyihalarni davlat tomonidan moliyalashtirilishi; mehnat muhofazasi bo'yicha malakali mutaxassislarni yetkazib berish masalasi; mehnat muhofazasi bo'yicha yagona axborot tizimini yaratish kabi masalalar va ularning ijrosi borasida halqaro me'yorlar belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000 yil 12 iyulda "Mehnatni muhofaza qilishga doir me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish to'g'risida"gi № 267 qaror qabul qilindi. 2008 yil 10 sentabrda "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi, 2009 yil 16 aprelda esa "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. 2010 yil 20 iyulda esa Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida"gi №153 qaror qabul qilindi. Buning natijasida mehnat muhofazasi sohasida me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish, hamda amalga tatbiq qilish yanada jadallashdi.

Faoliyat – insonning yashashi uchun zarur bo'lgan asosiy shartsharoitlardan biridir. Mehnat – faoliyatning oliy shaklidir. Falsafiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, «inson» tushunchasiga eng xos aniqlanish «Homo agens», ya'ni «Harakatdagi inson»dir. Albatta, faoliyat va mehnat shakli turlicha bo'lib, u hayotdagi ishlab chiqarish, madaniyat, jamoat ishlari, ilmiy ishlar va boshqa sohalardagi amaliy, intellektual hamda ma'naviy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishda mehnatni tartibsiz, amaldagi qonun-qoidalar, standartlar va ko'rsatmalarga amal qilmasdan amalga oshirilishi, nafaqat jarohatlanish yoki shikastlanishni keltirib chiqarishi, balki ayrim hollarda o'limga ham olib kelishi mumkin. Tabiiyki, bu insonni o'zining mehnat faoliyatidagi tabiiy, texnik, antropogen, ekologik va boshqa turdagi barcha xavfli faktorlardan himoyalashni ilmiy asosda tashkil qilishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyatning uzoq o'tmish hayotiy tajribasi har qanday faoliyat potensial xavfga ega ekanligini tasdiqlaydi. Albatta, bu tasdiq aksiomaviy xususiyatga egadir. Vaholanki, ishlab chiqarish sharoitida xavf darajasini boshqarish hamda kamaytirish ham mumkin. Lekin qanday holatda bo'lmasin, absolyut xavfsizlikka erishib bo'lmaydi.

Mehnatni muhofaza qilish – ishlab chiqarishdagi mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalar usullar majmuidir. Demak, insonning mehnat xavfsizligini ta'minlash birinchi navbatda uning mehnat faoliyati jarayonini va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfli faktorlarni o'rganishni talab etadi. Shu sababli, inson mehnat faoliyatining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlari eramizdan oldingi 384–322-yillarda irod qilgan Aristotel, eramizdan oldingi 460–377-yillarda yashagan Gippokrat asarlarida ham uchraydi. Tiklanish davrining buyuk, taniqli olimi Paratsels (1493–1541-y.) tog' ishtarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli 9 faktorlarni o'rganib chiqqan. U o'z asarlarida: «Barcha moddalar zahardir

va barcha moddalar dori-darmon hamdir. Faqat bir me'yor ushbu moddani zaharga aylantirsa, ikkinchi me'yor esa uni doridarmonga aylantiradi», deb yozadi. Nemis olimi Agrikol (1494–1555-y.) o'zining «Tog' ishlari haqida» nomli asarida, shuningdek, italyan olimi Ramatstsin (1633–1714-y.), rus olimi M.V. Lomonosov (1711–1765-y.) o'z asarlarida mehnat muhofazasi masalalariga katta e'tibor qaratgan.

XIX asrda sanoatni intensiv rivojlanishi natijasida mehnat muhofazasi muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qancha olimlar yetishib chiqdi. Jumladan, V.L.Kirpichev (1845–1913-y.), A.A.Bess (1857–1930-y.), D.P.Nikolskiy (1855–1918-y.), V.A.Levitskiy (1867–1936-y.), A.A.Skochinslay (1874–1960-y.), S.I.Kaplun (1897–1943-y.) shular jumlasidandir. Yuqorida ta'kidlanganidek, mehnat xavfsizligini ta'minlash qadimgi davrdan hozirgi kungacha inson faoliyatining muhim tomonlaridan biri hisoblanib kelindi. Shu sababli «Mehnatni muhofaza qilish» mustaqil fan sifatida shakllandi va o'z nazariyasiga, uslubiga hamda tamoyillariga ega bo'ldi. Shu bilan bir qatorda «Mehnatni muhofaza qilish» fani muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi, mehnat gigiyenasi, antropometriya, ergonomika, texnikaviy estetika kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bir-biridan tadqiqot qilinadigan yoki o'rganiladigan obyektlarining turi, ya'ni «inson-mashina», «inson-muhit», «inson-mashina-muhit» tizimlari bilan farq qiladi. Birinchi turdagi tizimlar qonuniyatlarini muhandislik psixologiyasi, psixofiziologiya, mehnat fiziologiyasi o'rgansa, «inson-muhit» tizimi qonuniyatlarini mehnat gigiyenasi o'rganadi. «Inson-mashina-muhit» qonuniyatlari esa ergonomikaning asosiy tatbiq obyekti hisoblanadi. Lekin, real ishlab chiqarish sharoitida barcha turdagi bog'lanishlar bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli inson o'z mehnat faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli, ishlab chiqarish sharoitidagi umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning inson sog'ligi va mehnat qobiliyatiga birgalikdagi ta'sirini alohida mustaqil fan – «Mehnatni muhofaza qilish» fani o'rganadi.

MUHOKAMA

Mehnatni muhofaza qilish fanining asosiy maqsadi insonning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli faktorlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratishdan iboratdir.

Mehnat muhofazasi oldida turgan vazifalarning murakkabligi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish vazifalari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan ko'plab ilmiy fanlarning yutuqlari va xulosalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-huquqiy fanlar va qonun hujjatlariga, shuningdek, mehnatni ilmiy tashkil etish, texnik estetika, ergonomika, ijtimoiy va muhandislik psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarga taalluqlidir. Xavfsiz muhitni ta'minlash usullarini ishlab chiqishda mashinalar, apparatlar va boshqa asbob-uskunalarni ekspluatatsiya qilish, texnika fanlari yutuqlariga asoslanadi, ularning ma'lumotlaridan baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oldini olish uchun muhandislik yechimlaridan foydalanadi. Mehnatni muhofaza qilishning asosiy obyekti mehnat jarayonida shaxs bo'lganligi sababli, bir qator tibbiy va biologik fanlar (mehnat gigiyenasi, mehnat fiziologiyasi va psixologiyasi, ergonomika, ishlab chiqarish toksikologiyasi, kasbiy patologiya, ishlab chiqarish ekologiyasi va boshqalar)dan foydalaniladi. Shuningdek, mehnat muhofazasi

masalalari yong'in va portlashlarning oldini olish choralari ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayniqsa, mehnatni muhofaza qilish bilan mehnatni ilmiy tashkil etish, ergonomika, muhandislik psixologiyasi va texnik estetika fanlari o'rtasida yaqin aloqalar mavjud.

Mashina (uskunalar) va atrof-muhit bilan ishlaydigan odamning o'zaro ta'sirini o'rganishda kompleks, tizimli yondashuv zarur. Bunday yondashuvga sabab, oxirgi paytda texnik qurilmalar, nevropsixik ortiqcha yuklar ko'paydi, kasbiy kasalliklar paydo bo'ldi, baxtsiz hodisalar, ofatlar va boshqa noxush oqibatlar ko'payganidadir. Ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish tendensiyasi texnologiyani yanada murakkablashtirish, yirik komplekslarni boshqarishni markazlashtirishda yotadi. Mutaxassislarning asosiy vazifasi esa texnologiya va inson o'rtasidagi optimal o'zaro ta'sir qilish usullari va vositalarini aniqlashdir.

Bunday sharoitda mehnat qurollarini loyihalashda insonning fiziologik va psixologik xususiyatlarini, uning estetik didi va ijtimoiy fazilatlarini har tomonlama hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bunday hisobining imkoniyatlari ergonomika bilan ifodalanadi. Ergonomika muayyan faoliyat turlari uchun mos variantlarni ishlab chiqadi, texnik vositalarga va kasbiy tanlash, o'qitish, ta'limga qo'yiladigan talablarni shakllantiradi, baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan yashirin sabablarni aniqlashda yangi imkoniyatlar ochadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mehnat muhofazasi muammolarini hal etishda muvaffaqiyat ko'p jihatdan ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlash sifatiga, ularning zamonaviy ishlab chiqarishning murakkab sharoitida to'g'ri qaror qabul qila olishiga bog'liq. Shuning uchun har bir kollej bitiruvchisi mehnat muhofazasi sohasida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak, chunki ishlab chiqarish obyektlarida mehnat muhofazalash holati, xavfsiz uskunalarni ishlab chiqish samaradorligi va sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha ishlarni tashkil etish, bunda iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan mutaxassislarni tayyorlash sifatiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MEHNAT MUHOFAZASI MAXSUS KURSI. E.I. IBRAGIMOV, S. GAZINAZAROVA, O.R. YULDASHEV. Toshkent – 2014.
2. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI, O.D.RAHIMOV, R.T.XO'JAQULOV, O.T.HASANOVA, O'R.YO'LDOSHEV. «Davr nashriyoti» Toshkent – 2013.
3. MEHNAT PSIXOLOGIIYASI Umarova Navbahor Shokirovna TOSHKENT – 2018.
4. MEHNATNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. Bakieva I.A. IQTISODIYOT – 2019.
5. MEHNATNI MUHOFAZA QILISH. Y.O. MANNONOV, K.G. MAVLONOV. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2015.

6. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI. H.X. RAZZOQOV, SH.A. MAMASOV. TOSHKENT – 2019.
7. MEHNAT MUHOFAZASI MAXSUS KURSI. O.R.YULDASHEV Toshkent-2015.
8. <https://mehnat.uz/>
9. Teshaboyev, A. M., & Meliboyev, I. A. (2022). Types and Applications of Corrosion-Resistant Metals. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(5), 15-22.
10. Mamirov, I., Sobirov, A., Xasanov, A. S., & Meliboyev, I. (2022, September). Raqamlashib Borayotgan Zamonaviy Oliy Ta'limda Pedagogning Kasbiy Kompetentsiyalarini Rivojlantirishning Zamonaviy Mexanizmlari. In *Conference Zone* (pp. 8-11).
11. O'G'Li, M. I. A. (2022). Gazdan xavfli ishlarni xavfsiz olib borishni tashkillashtirish bo'yicha xavfsizlik tizimi. *Ta'lim fidoyilari*, 4(7), 36-40.
12. Домуладжанова, Ш. И., Мелибоев, И. А., & Мамиров, И. Г. (2022, November). Способы и устройства по производству извести. In *Conference Zone* (pp. 327-337).
13. Meliboyev, I. A. (2022). Azot oksidli chiqindi gazlarni katalitik zararsizlantirish usuli. *Pedagog*, 5(6), 257-261.
14. Meliboyev, I. A. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida modulli o'qitishning ahamiyati. *Pedagog*, 5(6), 333-336.
15. Sh, A. S., & Meliboyev, I. A. (2022, December). FIZIKA FANI AMALIY MASHGULOTLARIDA, LABARATORIYALARIDA O'QUVCHILAR MAVZUNI TERANROQ ANGLASHI UCHUN SUNIY INTELLEKT JIHOZLARDAN FOYDALANISH. In *Conference Zone* (pp. 423-428).
16. Xasanov, A. (2022). РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ БЕЗОПАСНОГО УПРАВЛЕНИЯ АВТОМАТИЗИРОВАННЫМ ПРОЦЕССОМ НИЗКОТЕМПЕРАТУРНОГО РАЗДЕЛЕНИЯ ГАЗОВ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 1184-1190.
17. Abdruraxmon o'g'li, M. I. (2022). A Method of Catalytic Neutralization of Exhaust Gases with Nitrogen Oxides. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 21-24.
18. Abdruraxmon O'g'li, M. I. (2022). OCCUPATIONAL DISEASES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: CAUSES, TYPES AND PRINCIPLES OF PREVENTION. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(10), 1-9.
19. KH, R. A., SH, K. E., & IA, M. (2023). The Study of Modern Fire Protection Technologies For Effective Fire Extinguishing. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 69-73.
19. Xamidullaevich, R. A. (2023). Development and Improvement of The Methods of Increase Labor Safety of Oil and Gas Network Employees on The Basis of Using The Method of Registration of Dangerous Situations. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(2), 11-16.
20. Abduraxmon o'g'li, M. I. (2022). MATERIALLAR KRISTALIDAGI NUQSONLAR VA ULARNI ANIQLASH USULLARI. *PEDAGOG*, 5(6), 413-415.